

**TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI
TAYYORLASHDA DEFECTOLOGNING OILA BILAN HAMKORLIGI**

*Farg'ona viloyati Beshariq
tumani 23-son-DMTT psixologi
Umurzoqova Go'zaloy Ilxom Qizi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada defektologning tayyorlov guruhida tarbiyalanayotgan bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinib ochib berildi. Shuningdek bolani maktab ta'limiga tayyorlashda oilaning o'rni va vaziflari, oilaviy qadriyatlar va indikatorlari nazariy va amaliy tomondan asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Uchinchi renessans, oila, defektolog, indikator, "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturi, boshlang'ich ta'lim, majburiy bir yillik ta'lim.

**COOPERATION OF DEFECTOLOGISTS WITH FAMILIES IN QUALITY
PREPARATION OF CHILDREN IN THE PREPARATION GROUP FOR
SCHOOL EDUCATION****Annotation**

This article scientifically analyzes and reveals the mechanisms of quality preparation of children brought up in the defectologist's preparatory group for school education. Also, the role and tasks of the family, family values and indicators in preparing a child for school education are theoretically and practically substantiated.

Keywords: Third Renaissance, family, defectologist, indicator, "First Step" state curriculum, primary education, compulsory one-year education.

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi eng asosiy yacheyka bu-oila hisoblanadi. Farzand esa oilani mustahkamlovchi eng oliy hazrati insondir. Bu borada ota-onaning bir-birlariga samimiy munosabati, o'zaro hurmati farzandlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya hatti-harakatlari, betakallufligi oiladagi o'zaro munosabatlarning buzilishiga, farzandlar tarbiyasida bo'shliqning paydo bo'lishiga olib keladi. Farzandlar o'z uylarida kuzatgan ma'naviy muhitdan o'rnak oladilar. "Oiladagi ma'naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag'ritosh" bo'lib o'sadi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda defektologning oila bilan hamkorligi bugun "Uchinchi renessans"ning hal qiluvchi omili hisoblanadi. Jamiyatda ta'lim-tarbiyani rivojlantirishda oila juda katta vazifani bajarish bilan birga juda katta ma'suliyatni ham

o‘z bo‘yniga oladi. Oila qo‘rg‘onini ustuni albatta ota, ona bilan farzand ta‘limi va tarbiyasida oilaning drayveri hisoblanadi.

Agar “avto mashina”ni bir butin oila deb hisoblasak o‘z vaqtida mashinaga ham uning ehtiyojidan kelib chiqib sarf-xarajat qilinmasa u ham tanazzulga (mashinaning biror bir joyida nuqson paydo bo‘ladi) yuz tuta boshlaydi. Go‘yoki oilada ta‘lim va tarbiyaga ota-onalar ma‘suliyat bilan yondoshilmasa farzand ta‘lim-tarbiyasida ham tanazzul yuzaga kela boshlaydi. Ba‘zi hollarda aksariyat ota-onalar muloyimlik, og‘ir-bosiqlik bilan, kimdir qattiqqo‘llik, tahdid bilan bolani to‘g‘ri yo‘lga solishga harakat qiladi. Fikirimizcha ota-onaning vazifasi bolaga faqat nima qilish lozimligini anglatish yo o‘rgatish emas, nima yaxshiyu, nima yomonligini bildirishni ham taqozo qiladi. Farzandi nimaga qiziqadi, qanday muammolari bor, do‘stlari kimlar? Bu haqda har-bir ota-onalar bilishi lozim. Bu borada bugun bizdan farzanda ta‘lim-tarbiyasida har bir ota-onalar pedagog bo‘lishni talab qilmoqda. Ota-onalar har kuni farzandi bilan suhbatlashish uchun vaqt ajratishi, ular bilan sirdosh bo‘lishi va hamisha shaxsiy namuna ko‘rsatishi kerak. Buning uchun ota-onalar o‘z zimmalarida mas‘uliyatni his etishlari talab etiladi.

Oilada ayrim ota-onalar farzandlari biron bir yomon ish qilib qo‘ysa, uni qattiq jazolash, taqiqlash va uydan chiqarmay qo‘yish usullari orqali tarbiyalamoqchi bo‘ladi. Farzandi o‘zlariga yoqadigan ishga qo‘l ursa, maqtovgacha erk berib mukofotlaydi. O‘zlari qo‘llayotgan usullarni qay biri to‘g‘ri, qay biri noto‘g‘ri ekanligi haqida esa o‘ylab ham ko‘rmaydilar. O‘zlaricha tarbiyada qattiqqo‘llik muhim deb hisoblashadi. Natijada o‘zlari bilmagan holda bolalarining tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ota-onalar eng avvalo oilada bolalarni tarbiyalash to‘g‘risidagi nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa ular tarbiya to‘g‘risidagi pedagogik va psixologik kitoblarni, gazeta va jurnallar, teledasturlar bilan tanishib borishlari lozim bo‘ladi.

Ilmiy kuzatuvlarga qaraganda, oilalarda ota-onalar hamda farzand o‘rtasidagi munosabatlarda ham o‘ziga xos samarasiz usullardan foydalanilayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, ota-onalar ba‘zan farzandlariga o‘ta-darajada mehr ko‘rsatadi, keragidan ortiq mehr qo‘yishadi. Istagan narsasini muhayyo qilishga intilishadi. Bir qarashda, hammasi to‘g‘ri, bolasiga g‘amxo‘rlik qilish ota-onaning burchi, deyish mumkin. Ming afsuski, bunday munosabat bolalarda salbiy xislatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Binobarin, manmanlik, birovlarini mensimaslik, tayyorga-ayyorlik, mehnatning qadriga yetmaslik, sabr-toqatsizlik kabi salbiy xislatlar ana shunday “mehribonlik” mevasidir. Bunday ruhda tarbiyalangan bolalar muammoli vaziyatlarda mustaqil fikr yuritish, muayyan qarorlarga kelish borasida ham qiyinchiliklarga uchraydi. Qolaversa, o‘z tengqurlari bilan kelisha olmasliklari, do‘stlari doirasining torligi sabab ko‘pincha yakkalanib qolishadi. Bu esa ayrim noqis kimsalarga qo‘l kelishi, ularni turli oqimlarga, jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Biz bugun fikr yuritayotgan mavzuimiz maktabgacha ta'lim tashkiloti katta tayyorlov guruhi bolalarini maktabga tayyorlashda "oila"ning vaziflari, asosiy ko'rsatkichlari (indikatorlari) va istiqbollari nimalardan iborat. Mana shu muammoni atroflicha tahlil qilishni va bu boradagi mavjud kamchiliklarni aniqlab ularni yechimini yechishga doir aniq taklif va tavsiyalarni ham ilgari surishni taqozo qilmoqda.

Katta tayyorlov guruhi bolalari 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilari hisoblanishadi. Aynan mana shu yoshdagi bolalarni bog'chada o'qitishda "Ilk Qadam" davlat o'quv dasturining qaysi yo'nalishlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim? Mana shu haqda bolani maktabga tayyorlashdagi mavjud davlat dasturlarini bolaga ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'rganilib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Eng katta masala maktabgacha ta'lim tashkilotini tugatayotgan tayyorlov guruhi bolalarini maktab ostonasiga kuzatishda bolaning qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim, bola shaxsi nihoyatda nozik bo'lganligi uchun oiladagi qadriyatlar uni o'sib ulg'ayishida ijobiylik kasb etadima yoki salbiylik. Bunda oila bola xohish istagiga qarab uning birinchi o'rinda ehtiyojlarini (ta'minotini) o'z vaqtida samarali hal qilishi lozim. Shu o'rinda ota-ona bolani rivojlanish bosqichlarini kuzatib borishi va bog'cha bilan doimiy hamkorlik qilgan holda uni maktabga tayyorlash mexanizmlarini ma'lum bir reja asosida amalga oshirishni talab qiladi. Albatta bunda ota-ona sabr bilan o'z oilasidagi qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirishsa nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Yana bir muhim masala bolani maktabga tayyorlashda oilada bobo va momoni ham o'rni beqiyos deb bilaman. Chunki azaldan aytishadi "qarisi bor uyning parisi bor" deb. Bobo va momo bola shaxsini shakllanishida uni maktabga chiqish asnosida o'zlarining pand nasihatlarini va o'g'itlari bilan bola ongi va tafakkurini charxlaydi. Va bu charx bolani maktabga chiqishdagi eng katta indikator vazifasini o'taydi.

Shuningdek bolani maktabga tayyorlashda Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 999-son [qaroriga](#) asosan 2018-2019 o'quv yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumanida, Farg'ona viloyatining Furqat tumani va Quvasoy shahrida hamda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Bektemir, Uchtepa, Yashnobod, Chilonzor, Yunusobod va Shayxontohur tumanlarida bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash tizimi tajriba-sinov tariqasida muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Tajriba-sinov doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona viloyati va Toshkent shahrida tashkil etilgan bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlov guruhlarining 494 ta guruhida 11 103 nafar bola tayyorlovdan o'tdi. Hozigi kunga kelib Respublikamizning barcha hududlarida majburiy bir yillik ta'lim xoh bog'cha bo'lsin, xoh shunga mos bo'lgan boshqa binolar bo'lsin barchasida bolalarni maktab ta'limga tayyorlash davlat siyosatining ustivor vazifasiga aylandi.

Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha dastlabki loyihaning ijobiy tajribasini boshqa hududlarda ham tatbiq etish, maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sog‘lom, faol, barkamol, ijtimoiy moslashtirilgan bolalarni tarbiyalash, kelgusida muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati uchun shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni boshlang‘ich ta‘limga sifatli tayyorlash hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi ijrosini ta‘minlash maqsadida quydagilarga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunda:

-maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinmagan bolalar uchun tayyorlov guruhlarini shakllantirish;

-tayyorlov guruhlarining o‘quv-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta‘lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini joriy etish;

-tayyorlov guruhlarini milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiradigan va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni oshiradigan o‘quv-metodik, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o‘yinlar hamda o‘yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan ta‘minlash;

-ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda, maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olinmagan bolalarning davlat talablariga muvofiq har tomonlama aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

-tayyorlov guruhlarini tashkil etishda maktabgacha ta‘limning muqobil shakllarini keng joriy etish;

-davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda maktabgacha ta‘lim sohasida ham ta‘lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi boshqa davlat tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashni ham nazarda tutadi.

Mazkur huquqiy hujjatdan ham ko‘rinib turibdiki maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining eng asosiy funksional vazifasi tarbiyalanuvchilarni maktab (boshlang‘ich ta‘lim)ga sifatli tayyorlashdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta‘kidlamocchimanki bugungi kunda o‘zbek oilasida ota-onalar tomonidan tarbiyada qaysi usullar qo‘llanilishi, oilada ota-onalarning mas‘uliyati qay darajada ekanligini aniqlash maqsadida tadqiqot o‘tkazilishni, bu boradagi mavjud nuqsonlar va kamchiliklar aniqlanib ularning yechimi bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalarni o‘z ichiga olgan davlat dasturi ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent-2017
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T.: 2018.
3. “Ilk qadam” maktabgacha ta‘lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T.: 2018.

4. Mayer A.A., Davydova O.I., Voronina N.V. “Ishtirok etish uchun 555 ta g‘oya otalar bolalar bog‘chasi hayotiga”. - M.:Ijodiy TSmarkazi. 2011 yil
5. Migalyaeva N.V. “Bolalar bog‘chasi va yosh oila: Muvaffaqiyatli hamkorlik asoslari”. - M.: Ijodiy markaz. 2010 yil

